



MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA ICHKI ISHLAR TIZIMINING ROLI

Faxriddin Sohibjon o'g'li Ro'ziboyev

“University of Business and Science” “Ijtimoiy fanlar
kafedrası” o'qituvchisi.

e-mail: faxriddinroziboyev62@gmail.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20729058>

Annotatsiya: Mazkur tezisda mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar tizimining tutgan o'rni hamda roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda so'nggi yillarda sohaga joriy etilgan huquqiy-tashkiliy islohotlar, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz poytaxt” konsepsiyalari doirasida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi hamda profilaktika inspektorlarining jamoatchilik bilan hamkorlik qilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ichki ishlar tizimini xalqchil tuzilmaga aylantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi tizimli muammolar hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, ichki ishlar organlari, huquq-tartibot, profilaktika, fuqarolik jamiyati, mahalla instituti, huquqbuzarliklar, davlat siyosati.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, bu jarayonda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar organlari nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi, jamiyatda barqarorlik va osoyishtalikni ta'minlovchi institut sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining *“Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi* Qonunida ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlangan bo'lib, ushbu qonunning 16- va 17-moddalarida [1] ularning vakolat doirasi, huquq va majburiyatlari batafsil belgilangan. So'nggi yillarda O'zbekistonda jamoat tartibini saqlash tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli farmoniga muvofiq qabul qilingan *“Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”* [2], 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-sonli qarori orqali patrul-post xizmati tubdan qayta tashkil etildi, aholi gavjum joylarida jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi [3].



Mazkur tadqiqotning maqsadi — mustaqillik davrida O'zbekistonda jamoat tartibini saqlash sohasidagi davlat siyosatining shakllanish bosqichlarini tahlil qilish, ichki ishlar organlarining bu boradagi vakolat va vazifalarini ochib berish, shuningdek sohani yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sirasiga "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalarining huquqiy mazmunini ochib berish, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya o'rtasidagi vakolatlar taqsimotini tahlil qilish, mahalla institutining huquq-tartibotni ta'minlashdagi o'rnini baholash kiradi.

Ichki ishlar tizimining jamoat tartibini saqlashdagi roli bir qancha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, profilaktika faoliyati orqali huquqbuzarliklarning oldini olish ishlari tashkil etiladi. Ikkinchidan, ommaviy tadbirlar, bayramlar va boshqa aholi gavjum bo'ladigan tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash vazifasi amalga oshiriladi. Uchinchidan, fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va ularning huquqlarini himoya qilish ta'minlanadi. So'nggi davrda mahalla institutining jamoat tartibini saqlashdagi o'rni sezilarli darajada kuchaytirildi. Prezidentning 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-sonli qarori asosida mahallalarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlari ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya bo'linmalari va jamoat tuzilmalari vakillarining hamkorligida tashkil etilmoqda [4]. Bundan tashqari, mahalladagi videokuzatuv tizimlaridan foydalangan holda yagona markazlashgan elektron monitoring orqali huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish mexanizmi joriy qilingan, bu zamonaviy texnologiyalarning huquq-tartibot sohasiga integratsiyalashuvini ko'rsatadi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya o'rtasidagi vazifalarning aniq taqsimlanishi muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Yirik shaharlar markazida, istirohat bog'lari va bozorlarda jamoat tartibini saqlash Milliy gvardiya bo'linmalari zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, tuman va shahar miqyosidagi kundalik huquq-tartibotni ta'minlash vazifasi ichki ishlar organlari boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu yondashuv kuch va vositalarni samarali taqsimlash, javobgarlikni aniqlashtirish imkonini beradi.

Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning faol ishtiroki samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham fuqarolik jamiyati institutlarini, jumladan mahalla faollarini huquq-tartibotni ta'minlash jarayoniga jalb etish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda, bu esa ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqqligi va jamoatchilik bilan hamkorligini mustahkamlaydi.



Ichki ishlar organlari kadrlar siyosatini takomillashtirish ham jamoat tartibini saqlash samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Prezidentning 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-sonli qarori bilan xodimlarning xizmat, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkil etish tartibi yangi tamoyillar asosida qayta ko'rib chiqildi, bu esa xizmatchilar malakasini hudud xususiyati va lavozim majburiyatlariga moslashtirilgan holda oshirish imkonini berdi [5]. Bundan tashqari, ichki ishlar organlarida elektron hujjat aylanishi va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish boshqaruv tizimini markazlashtirish va shaffoflashtirishga xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamoat tartibini saqlash sohasidagi islohotlar nafaqat tashkiliy-huquqiy, balki texnologik jihatdan ham rivojlanib bormoqda. Aholi gavjum bo'ladigan joylarda, jumladan bozorlar, istirohat bog'lari va transport tugunlarida video kuzatuv tizimlarining joriy etilishi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni tezkor aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishdagi ishlar "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi doirasida yanada kengaytirilib, ichki ishlar organlari faoliyatining raqamlashtirilgan boshqaruv tizimiga integratsiyalashishini ta'minlamoqda [6].

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O'zbekistonda jamoat tartibini saqlash tizimi izchil va bosqichma-bosqich isloh qilinmoqda. Ichki ishlar organlarining ushbu jarayondagi roli nafaqat huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, balki fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashdan iborat. Kelgusida ichki ishlar organlari faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yanada takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish jamoat tartibini saqlash samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son Farmoni. "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son Qarori. "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".lex.uz.



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son Qarori. "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida". lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son Qarori. "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". lex.uz.
6. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari // Ilmiy maqola. CyberLeninka.